

**O‘.HOSHIMOV “AJDAR”NING TOVBASI” HIKOYASIDA MAVHUM  
OTLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI  
(INGLIZ TILI BILAN QIYOSIY)**

*Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi  
Urganch davlat universiteti talabasi*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada O’tkir Hoshimovning ““Ajdar”ning tovbasi” hikoyasidagi mavhum otlarning lingvokulturologik xususiyatlari ingliz tili bilan qiyosiy tarzda tahlilga tortilgan.

**Kalit so’zlar:** lingvomadaniyat, tilning grammatikasi, milliy xarakter, mavhum otlar, tarjima, lakunalar.

**Annotation:** In this article, the linguistic and cultural characteristics of abstract nouns in O’tkir Hashimov's story "The Dragon's Repentance" are analyzed in a comparative way with the English language.

**Key words:** linguistic culture, grammar of the language, national character, abstract nouns, translation, lacunae.

**Аннотация:** В данной статье лингвокультурные особенности абстрактных существительных в рассказе Откира Гашимова «Покаяние дракона» анализируются в сравнительном ключе с английским языком.

**Ключевые слова:** лингвокультура, грамматика языка, национальный характер, абстрактные существительные, перевод, лакуны.

Har bir tilda yozilayotgan asar o‘sha tilning xususiyatlari, madaniyati va urfodatlariga tayangan holda hosil bo‘lgan leksik qatlami asosida yaratiladi. Har qanday asarga xalq madaniyatining aksi singdirilgan bo‘ladi. Xalqning madaniyati esa tildagi so’zlar, ularning turli ma’no nozikliklari va hatto uning grammatikasida ham namoyon bo‘ladi. Bu esa bevosita lingvomadaniyatshunosik bilan bog‘liq.

Lingvomadaniyat tilning grammatik kategoriylarida ham ko‘rinib turadi. O’tkir Hoshimovning “Hajviy hikoyalar” to‘plamidan olingan bir necha hikoyalaridagi mavhum otlar faqat o‘zbek tiliga xosligi, o‘zida xalqimizning madaniyatini, urfodatlarini va milliy xarakterini mujassamlashtirib turishi bilan ahamiyatlidir.

O’tkir Hoshimov hikoyalarida mavhum otlarning keng qo‘llanilishi va ulardagi ayrim ma’no qirralarining boshqa tillarda qanday ifodalanishi, ushbu ma’nolarning ularda ham mavjud yoki mavjud emasligi o‘zbek tilining muhim lingvokulturologik xususiyatlaridan biridir. Xususan, ingliz tili bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, har ikkala tilning ham o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi.

Quyida O‘.Hoshimovning “Ajdarning tovbasi” hikoyasidagi mavhum otlarning lingvokulturologik xususiyatlarini ingliz tili bilan qiyoslagan holda tahlilga tortamiz.

Kechqurun esa cheksiz nafrat otashin muhabbatga aylanadi<sup>1</sup>. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Muhabbat\\_\(ma%CA%BCnolari\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Muhabbat_(ma%CA%BCnolari)) Yuqoridagi gapda muhabbat so'zi o'zbek tilidan ingliz tiliga love deb tarjima qilinib, <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/love.html>

love so'zi sevgi, ishq, biror narsani yoqtirish, juda yaxshi ko'rish kabi ma'nolarga ega hamda har qanday narsani va insonni yoqtirishga nisbatan umumiy. O'zbek tilida esa bu ma'nolarning har birini ifodalash uchun alohida mavhum otlar mavjud. Masalan, sevgi so'zi, asosan, insonning insonga bo'lgan tuyg'usini bildirsa, muhabbat so'zi esa bu ma'noda umumiy tushuncha ifodalab Vatanga, ota-onaga, do'stlarga nisbatan ham qo'llana oladi. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sevgi>

Sevgi va muhabbat so'zlarining ingliz tilida bir so'z bilan ifodalanishi bizning madaniyatimizda xos bo'lgan tushuncha va qadriyatlarning ularda mavjud emasligi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, ingliz tilida mehr so'zi ham love deb tarjima qilinadi. Children need to be shown lots of love ( Bolalar ko'p mehr ko'rishga muhtoj bo'ladi) gapida love so'zi o'zbek tilidagi mehr so'ziga to'g'ri keladi.

Tajriba ([https://uz.opentran.net/ozbek-ingliz\\_tarjima/tajriba.html](https://uz.opentran.net/ozbek-ingliz_tarjima/tajriba.html))

oti ingliz tiliga practice, experiment va background deb tarjima qilinib, uning mavhum ot ma'nosini experiment yoki background so'zlar anglatadi. Chunki practice o'zbek tilida amalda ko'rsatish, amaliyot ma'nosini beradi.

Practice n. amaliyot; (custom) urf-odat; (exercise) mashq; in- amalyotda;<sup>2</sup>

Insof oti ingliz tiliga honesty deb tarjima qilinib,adolat degan ma'noni ham anglatadi. Jumladan, I appreciate your honesty ( Men sening insofliligingni qadrlayman) gapida honesty so'zi o'zbek tilidagi vijdon, insof, diyonat, halollik so'zlar uchun umumiy bo'lsa, She answered all my questions with her usual honesty (U mening barcha savollarimgaadolat bilan javob berdi) gapida esa to'g'riso'zlik, samimiylilik,adolat kabi ma'nolarda tarjima qilinadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, o'zbek tilidagi ko'p qo'llanuvchi mavhum otlardan hisoblangan ko'ngil so'zining ingliz tilida muqobili mavjud emas, ya'ni quyidagi gapda u ifodlagan ma'noni anglatuvchi alohida so'z yo'q:

Ertalab ko'nglida araqqa nisbatan cheksiz nafrat bilan uyg'onadi. ("Ajdar"ning tovbasi" hikoyasidan).

Shuning uchun, bu so'zning o'rniga heart (yurak) so'zidan foydalaniladi. Bu esa lakuna hisoblanadi.

Biror xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy sharoiti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'limgan so'z va so'z

<sup>1</sup> O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2017. –B. 3.

<sup>2</sup> S. Nazarov, F. Nazarova, N. Adizova, D. Boltayeva. English-uzbek dictionary. –Toshkent: "Niso Poligraf", 2013. –B . 522.

birikmalari lakunalar deyiladi.<sup>3</sup>

Lakunalarni muqobilsiz leksika tushunchasi bilan ham nomlash mumkin. Muqobilsiz leksika har qanday tilda uchraydigan hodisa bo‘lib, boshqa tilga tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlarni anglatadi. Chunki bu so‘z anglatayotgan tushuncha faqat shu til madaniyatigagina xos bo‘lib, boshqa xalqlarda uchramaydi.

Munday razm solsam, avtobusning old tomonidagilar "press" bo‘pketgan, men turgan tomon bo‘m-bo‘sh<sup>4</sup>!

Shuningdek, ““Ajdar”ning tovbasi” hikoyasida uchrovchi razm so‘zi o‘zbek tilida razm solmoq yoki razm solib qaramoq; nazar solmoq, sinchkovlik bilan kuzatmoq, diqqat bilan qaramoq, kuzatmoq ma’nolarini beradi. Samandarov unga boshdan-oyoq razm soldi-yu boshqa gap so’ramadi.(A. Qahhor, “Qo’shchinor chiroqlari”). <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/razm/>

Ma’lum bo’ladiki, tilimizda bu so’zning qarash so’zidan farqli jihatlari mavjud. Ammo ingliz tilida razm so‘zi ham, nigoh, qarash so’zlari ham bir xil , ya’ni look deb tarjima qilinadi. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/look.html>

A look passed between them ( Bir-biriga razm tashlashdi) gapida look razm, nigoh ma’nosini bersa, We’ll be taking a close look (Yaxshilab qarab chiqamiz) gapida qarash deb tarjima qilinadi. Demak, o‘zbek tilidagi razm, qarash, boqish, nazar so’zlarining bari ingliz tilida look deb ishlatiladi.

U yog’i nima bo’lgani yodimda yo’q<sup>5</sup>.

Yod so‘zi esa ingliz tiliga memory deb tarjima qilinadi. Memory so’zining asosiy ma’nosini o‘zbek tilidagi xotira so’ziga to’g’ri keladi. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/memory.html>

Biroq tilimizda yod va xotira so’zlari bir-biridan farq qiladi. Xotira – idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o’tmishtajribalarni esda qoldirish va zarur bo’lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. Xotira so‘zi nerv sistemasi elementi bo’lganligi sababli uning o’zini emas, balki yod, es, zehn kabi sinonimlarini mavhum ot sifatida olish to’g’riroq. Yod so‘zi esa yodga olmoq, yodga tushmoq, yoddan o’qimoq, yod oldirmoq birikmalarida kelishiga qaraganda es, zehn degan ma’nolarda keladi. Shuning uchun, xotira va yod so’zlari sinonim bo’lsa-da, bir so’z deb bo’lmaydi. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xotira>

I have a bad memory for names( Menda ismlarni eslab qolishda yomon xotira bor). Bu gapda memory so‘zi xotira ma’nosini anglatgan. There hasn’t been peace in the country within my memory ( Esimni taniganimdan beri bu davlatda tinchlik yo’q) gapida esa yod,es degan ma’noda tushuniladi.

O’tirib-o’tirib o’zimga na’sha qildi. Xayolimga g’alati o’y keldi<sup>6</sup>.

<sup>3</sup> Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. -М.: Высш. шк., 1986. -С. 55.

<sup>4</sup> О’. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: “O’qituvchi” NMIU, 2017. –B. 6.

<sup>5</sup> О’. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: “O’qituvchi” NMIU, 2017. –B. 6.

<sup>6</sup> О’. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: “O’qituvchi” NMIU, 2017. –B. 7.

Hikoyada qo'llangan xayol mavhum oti hamda miya so'zlarining har ikkalasi ham ingliz tiliga mind deb tarjima qilinadi. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/mind.html>

Biroq xayol va miya so'zlarini mutlaqo boshqa-boshqa ma'nolarni bildiradi. Miya bu insonning tana a'zolarini boshqarib turuvchi bosh organ hisoblansa, xayol miyamizdan o'tkazadigan fikrni anglatuvchi mavhum ot hisoblanadi. Ingliz tilida xayol so'zining alohida o'zini anglatuvchi thought so'zi ham mavjud. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/thought.html> My thoughts turned to home (Mening xayollarim uy tomonga burildi).

Tilimizdagi har bir so'z o'zining o'zgacha ma'no qirralarini namoyon qilishi bilan ajralib turadi va lingvomadaniyatimizni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: “O'qituvchi” NMIU, 2017.
2. S. Nazarov, F. Nazarova, N. Adizova, D. Boltayeva. English-uzbek dictionary. – Toshkent: “Niso Poligraf”, 2013. –B . 522.
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. -М.: Высш. шк., 1986. – С. 55.
4. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Muhabbat\\_\(ma%CA%BCnolari\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Muhabbat_(ma%CA%BCnolari))
5. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/love.html>
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sevgi>
7. ([https://uz.opentran.net/ozbek-engliz\\_tarjima/tajriba.html](https://uz.opentran.net/ozbek-engliz_tarjima/tajriba.html))
8. [https://uz.m.wiktionary.org/wiki/razm /](https://uz.m.wiktionary.org/wiki/razm/)
9. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/look.html>
10. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/memory.html>
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xotira>
12. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/mind.html>
13. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/thought.html>
14. Wisdom inglizcha-o'zbekcha so'zlar ilovasi